


**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2021-yil yanvar-may oyi uchun dastlabki ma'lumot)**

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yil yanvar-may oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 414,4 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 99,4 mln.AQSh dollariga ko'paydi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar-may, mln.AQSh dollari)**

Ma'lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 172,5 mln.AQSh dollariga (25,2 % ga ko`paydi) va import hajmi 241,2 mln.AQSh dollariga (36,2 % ga ko`paydi) yetdi. Hisobot davrida – 68,7 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO`LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar-may, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	116,4	44,9	16,1	28,1
Xitoy Xalq Respublikasida	110,5	15,3	34,8	26,7
Qozog`iston	45,8	8,9	12,6	11,0
Turkiya	40,6	6,3	12,3	9,8
Qirg`iz Respublikasi	22,8	11,9	1,0	5,5
Hindiston	9,3	0,4	3,6	2,2
Ukraina	6,0	2,0	1,0	1,4
Polsha	5,9	2,1	1,0	1,4
Tayvan	5,0	0,1	4,9	1,2
Germaniya	4,6	0,4	1,7	1,1

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 64 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (28,1 %), Xitoy Xalq Respublikasida (26,7 %), Qozog`istonda (11,0 %), Turkiyada (9,8 %), Qirg`iz Respublikasida (5,5 %), Hindiston (2,2 %) va Ukraina (1,4 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, qo`shni davlatlar Qozog`iston va Qirg`iz Respublikalari bilan TSA da so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Qirg`iziston va Qozg`iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya, Tayvan, Germaniya, Turkiya va Hindiston davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (116,4 mln.AQSh.dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (110,5 mln.AQSh.dollari), Qozog`iston (45,8 mln.AQSh.dollari), Turkiya (40,6 mln.AQSh.dollari), Qirg`iz Respublikasi (22,8 mln.AQSh.dollari) va Hindiston (9,3 mln.AQSh.dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 14 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-may, ming.AQSh.dollari)**

Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Rossiya Federatsiyasi	79246,9	80699,3	116419,6
Eksport	48958,2	48857,8	77414,7
Import	30288,6	31841,4	39004,8
Saldo	18669,6	17016,4	38409,9
Xitoy Xalq Respublikasi	102741,6	73549,7	110462,9
Eksport	17491,4	13297,0	26359,1
Import	85250,2	60252,7	84103,9
Saldo	-67758,8	-46955,7	-57744,8



Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Qozog`iston	37912,8	35398,3	45894,5
Eksport	19848,9	18208,2	15350,3
Import	18063,9	17190,1	30544,2
Saldo	1758,0	-1018,1	-15193,9
Turkiya	41373,0	16020,2	40614,8
Eksport	7869,1	4472,9	10904,5
Import	33503,9	11547,3	29710,3
Saldo	-25634,8	-7074,5	-18805,8
Qirg`iziston Respublikasi	36541,8	34106,9	22887,8
Eksport	35090,2	32082,7	20541,4
Import	1451,7	2024,2	2346,4
Saldo	33638,5	30058,5	18195,1
Hindiston	5205,5	2546,3	9386,7
Eksport	287,9	226,8	655,3
Import	4917,5	2319,5	8731,5
Saldo	-4629,6	-2092,7	-8076,2
Ukraina	7091,6	3813,9	6039,3
Eksport	3594,6	3198,9	3516,1
Import	3497,0	614,9	2523,3
Saldo	97,6	2584,0	992,8
Tayvan	1271,5	678,2	5031,2
Eksport	214,5	0	42,7
Import	1057,0	678,2	4988,5
Saldo	-842,5	-678,2	-4945,8
Polsha	3857,2	3188,9	5944,1
Eksport	1296,3	2520,9	3592,1
Import	2560,9	668,0	2352,0
Saldo	-1264,5	1853,0	1240,1

Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Germaniya	9797,0	7569,6	4684,2
Eksport	1992,4	1177,8	644,1
Import	7804,7	6391,8	4040,1
Saldo	-5812,3	-5214,0	-3396,0
Koreya Respublikasi	9812,1	7242,3	4035,4
Eksport	45,0	154,4	87,1
Import	9767,1	7087,9	3948,2
Saldo	-9722,0	-6933,5	-3861,1
Fransiya	406,4	1329,4	3888,0
Eksport	24,0	0,0	0,0
Import	382,4	1329,4	3888,0
Saldo	-358,4	-1329,4	-3888,0
Belarus	1782,2	1287,9	4274,3
Eksport	804,4	1055,9	1112,3
Import	977,8	232,0	3162,0
Saldo	-173,8	824,0	-2049,7
Turkmaniston	2230,1	2543,3	4161,1
Eksport	436,5	1362,5	953,0
Import	1793,6	1180,8	3208,1
Saldo	-1357,1	181,7	-2255,1
Italiya	2641,7	2626,9	2242,7
Eksport	225,2	617,7	593,7
Import	2416,6	2009,2	1649,1
Saldo	-2191,4	-1391,5	-1055,4
Portugaliya	597,2	817,3	2016,1
Eksport	597,2	805,1	1883,8
Import	0,0	12,2	132,4
Saldo	597,2	792,9	1751,4

Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Argentina	1780,2	370.0	2323,6
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	1780,2	370.0	2323,6
Saldo	-1780,2	-370.0	-2323,6
Malayziya	2476,2	0	3147,6
Eksport	0,0	0	0,0
Import	2476,2	0	3147,6
Saldo	-2476,2	0	-3147,6
Afg`oniston	231,7	1133,5	1744,6
Eksport	231,7	1133,5	1744,6
Import	0	0	0
Saldo	231,7	1133,5	1744,6
Serbiya	0	51.9	1644.5
Eksport	0	0	27,0
Import	0	51.9	1617.5
Saldo	0	-51.9	-1590.5

Viloyatda tashqi savdoni qo`llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo`yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021-yil yanvar-may oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 49,0 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020-yilga nisbatan ulushi 25,9 % ga ko`paygan.

NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-may, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021-yil yanvar-may oyida 2020-yilning shu davriga nisbatan ko'paydi (1,2 % ga) va jami TSA dagi ulushi 51,0 % ni tashkil etdi.

NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2021-yil yanvar-may)

Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatning eksportyorlar soni 317 tani tashkil etib, ular tomonidan 172,5 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020-yilning mos davriga nisbatan 25,2 % ga ko`paydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta`minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,8 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (72,5 %), Oziq-ovqat mahsulotlari (15,9 %) va Mashinalar va transport asbob-uskunalari (2,4 %) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

EKSPORT TARKIBI
(2021-yil yanvar-may, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Rangli metal
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar
- Qora metal
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Sanoat mahsulotlari
- Xizmatlar
- Boshqalar



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021-yil yanvar-may)**

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	172,5	121,6	50,9	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	27,4	22,1	4,4	15,9	12,8	2,5
Rangli metalar	0,2	0,1	0,1	0,1	0,06	0,06
Qora metalar	1,3	1,1	0,2	0,7	0,6	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	2,8	2,5	0,3	1,6	1,4	0,2
Sanoat tovarlari	129,8	87,3	43,4	72,5	80,2	95,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	4,1	4,0	0,1	2,4	2,3	0,06
Xizmatlar	3,7	2,3	1,4	2,1	1,3	0,8
Boshqalar	3,2	2,2	1,0	4,7	1,3	0,6

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport

hajmi bo`yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to`g`ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-may, mln.AQSh.dollari, ulushi, % da)




2021-yilning yanvar-may oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 44,9 %), Xitoy Xalq Respublikasi (15,3 %), Qirg`iz Respublikasi (11,9 %), Qozog`iston (8,9 %), Turkiya (6,3 %), Polsha (2,1 %) va Ukraina (2,0 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 91,4 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2020-yining mos davriga nisbatan 38 davlatdan 41 davlatga ko'paydi.

NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021-yil yanvar-may,% da)



- *Rossiya Federatsiyasi*
- *Xitoy Xalq Respublikasi*
- *Qirg'iz Respublikasi*
- *Qozog'iston*
- *Turkiya*
- *Polsha*

TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-may)

Davlatlar	Ming.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'ri	
	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.
Rossiya Federatsiyasi	48857,8	77414,7	99,8	158,4	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	13297,0	26359,1	76,0	198,2	4	2
Qirg'iz Respublikasi	32082,7	20541,4	91,4	64,0	2	3
Qozog'iston	18208,2	15350,3	91,7	84,3	3	5
Turkiya	4472,9	10904,5	56,8	243,8	5	4
Polsha	2520,9	3592,1	194,5	142,5	7	6
Ukraina	3198,9	3516,1	89,0	109,9	6	7
Portugaliya	805,1	1883,8	134,8	234,0	13	8
Afg'oniston	1133,5	1744,6	489,2	153,9	11	9
Tojikiston	2154,6	1476,2	734,6	68,5	8	10
Belarus Respublikasi	1055,9	1112,3	131,3	105,3	12	11
Turkmaniston	1362,5	953,0	312,2	69,9	9	12
Moldovo Respublikasi	575,0	869,5	104,8	151,2	15	13
Misir	-	674,2	0,0	100,0	0	14
Hindiston	226,8	655,3	78,8	288,9	16	15
Germaniya	1177,8	644,1	59,1	54,7	10	16
Italiya	617,7	593,7	274,3	96,1	14	17
Guruziya	396,2	501,7	182,1	126,6	17	18
Belgiya	14,2	372,2	0	2621,1	19	19
AQSH	28,7	332,4	6,3	1158,2	18	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 3724,7 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,1 % ini tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 17,9 % ga ko'payganligi kuzatildi.

TO`QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To`qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o`rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo`shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko`rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 143.4 mln.AQSh dollarlik to`qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 80,4 % ini tashkil etdi va o`tgan yilga nisbatan 66,2 % ga o`sdi.


Viloyatning to`qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag`batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2021-yil yanvar-may)

2021-yil yanvar-may oyida import hajmi 241,9 mln.AQSh dollarini va 2020-yilning mos davriga nisbatan 136,5 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, sanoat tovarlari (40,5 %) mashinalar va transport asbob-uskunalari (25,1 %), hamda Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (14,5 %) hisobiga to`g`ri keldi.

IMPORT TARKIBI
(2021-yil yanvar-may, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Rangli metal
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar
- Qora metal
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Sanoat mahsulotlari
- Xizmatlar
- Boshqalar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021-yilning yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 139,1 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 241,9 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,3 mln.AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021-yil yanvar-may)**



XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	241,9	81,4	160,5	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	38,9	24,2	14,7	16,0	29,7	9,1
Rangli metalar	0,5	0,1	0,4	0,2	0,1	0,2
Qora metalar	21,9	12,5	9,4	9,0	15,3	5,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	44,1	6,6	37,5	18,2	8,1	23,3
Sanoat tovarlari	45,2	24,9	20,3	19,0	30,8	13,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	87,5	10,3	77,2	36,1	12,6	48,0
Xizmatlar	0,3	0,1	0,2	0,1	0,1	0,1
Boshqalar	3,5	2,7	0,8	1,4	3,3	0,5

Importning eng katta ulushi, jumladan, Mashinalar va transport asbob-uskunolari (48,0 %) Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (23,3 %) Sanoat tovarlari (13,0 %), hamda MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va

transport asbob-uskunalar (48,0 %), Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (23,3 %) va hissasiga to`g`ri keladi.

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, 2021-yilning mos davriga nisbatan Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 36,2 % ga oshdi, kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 21.4 % ga oshdi, mashina va asbob-uskunalar 42.7 % ga oshdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR
VA XIZMATLAR IMPORTI**




Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlat-lar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 34,8 % ulushi bilan Qozog`istonni 12,6 % ortda qoldirgan holda, birinchi o`rinni egalladi.

**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-may)**

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O`shir sur`ati, % da		O`rni	
	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.
/Xitoy Xalq Respublikasi	60252,7	84103,9	70,6	139,5	1	1
Qozog`iston	17190,1	30544,2	95,1	177,6	3	3
Rossiya Federatsiyasi	31841,4	39004,8	105,1	122,4	2	2
Turkiya	11547,3	29710,3	34,4	257,2	4	4
Hindiston	2319,5	8731,5	47,1	376,4	11	5
Fransiya	1329,4	3888,0	347,6	292,4	15	9
Germaniya	6391,8	4040,1	81,8	63,2	8	7
Koreya Respublikasi	7087,9	3948,2	72,5	55,7	6	8
Ukraina	614,9	2523,3	17,5	410,3	22	13
Malayziya	4012,7	3147,6	162,0	78,4	9	12
Belarus	232,0	3162,0	23,7	1362,9	31	11
Argentina	370,0	2323,6	20,7	628,0	26	16
Qirg`iz Respublikasi	2024,2	2346,4	139,4	115,9	12	15
Turkmaniston	1180,8	3208,1	65,8	271,6	16	10
Italiya	2009,2	1649,1	83,1	82,0	13	18
Polsha	668,0	2352,0	26,0	352,0	21	14
Eron	967,9	1813	56,0	187,3	18	17
Shveysariya	9659,3	1162,6	4009,6	12,0	5	20
Tayvan	678,2	4988,5	64,1	735,5	20	6
Latviya	441,2	696,2	4,5	157,7	24	22

2021-yil yanvar-may oyi yakuni bo'yicha Namangan viloyati tomonidan 58 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

**NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021-yil yanvar-may,% da)**



- *Xitoy Xalq Respublikasi*
- *Rossiya Federatsiyasi*
- *Qozog'iston*
- *Turkiya*
- *Hindiston*
- *Tayvan*

Olti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Hindiston va Tayvan) jami importning 81,5 % ini tashkil qiladi, bu 197083,2 ming.AQSh dollarini tashkil etadi.



Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog`iston, Turkiya va Hindiston tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
boshqarmasi
Tel.:(69)-211-72-00**